## 2023- yilning yanvar-mart oylarida Namangan viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

**YAHM hajmi,** ***mlrd. so'm***

**7 843,2**

**YAHM o'sish sur'ati**

**105,4 %**

**YAHM deflyator indeksi**

**114,2 %**




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-martida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 7 843,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 5,4 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022- yilning yanvar-martidagi narxlariga nisbatan 114,2 %ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,0 %ga yetdi.





## 2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

| | *Mlrd. so‘m* | | ***O‘sish sur’atlari,*** *o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da* |
|---|---|---|---|
| | ***2022- yil*** | ***2023- yil*** | |
| **I. YAHM, jami** | **6 513,0** | **7 843,2** | **105,4** |
| *shu jumladan:* | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 6 257,4 | 7 623,0 | 105,2 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 255,6 | 220,2 | 111,1 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **6 257,4** | **7 623,0** | **105,2** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **1 264,0** | **1 536,5** | **103,9** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **1 625,5** | **2 023,9** | **104,5** |
| sanoat | 1 128,4 | 1 458,7 | 104,3 |
| qurilish | 497,1 | 565,2 | 104,9 |
| **xizmatlar** | **3 367,9** | **4 062,6** | **106,0** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 650,7 | 791,3 | 107,2 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 438,3 | 551,2 | 112,9 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 2 278,9 | 2 720,1 | 104,3 |



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 2 610,0 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 3,1 % ga yuqoridir.

**2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari**
*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)*




**2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi**
*(ming so‘mda)*






## 2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*

| | *2022- yil* | *2023- yil* |
|---|---|---|
| **I. YAHM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 96,1 | 97,2 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 3,9 | 2,8 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **20,2** | **20,2** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **25,9** | **26,5** |
| sanoat | 18,0 | 19,1 |
| qurilish | 7,9 | 7,4 |
| **xizmatlar** | **53,9** | **53,3** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 10,4 | 10,4 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 7,0 | 7,2 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 36,5 | 35,7 |



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

## 2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*

**2022- yil**




| | |
|---|---|
| *Qishloq, o‘rmon va baliqchilk xo‘jaligi* | 20,2% |
| *Sanoat* | 18,0% |
| *Qurilish* | 7,9% |
| *Xizmatlar* | 53,9% |

**2023- yil**




| | |
|---|---|
| *Qishloq, o‘rmon va baliqchilk xo‘jaligi* | 20,2% |
| *Sanoat* | 19,1% |
| *Qurilish* | 7,4% |
| *Xizmatlar* | 53,3% |

*Yalpi qo‘shilgan qiymat*

*Mahsulotlarga sof soliqlar*

2023- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 20,2 % ni, sanoat tarmog‘i 19,1% ni, qurilish 7,4 % ni va xizmatlar sohasi 53,3 % ni tashkil qildi.





# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2023- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi**
*(jamiga nisbatan % da)*




YAHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 0,8 f.p. (2022-yilning yanvar-martida – 0,8 f.p.), sanoat tarmog‘i – 0,7 f.p. (2022-yilning yanvar-martida – 1,3 f.p.), qurilish tarmog‘i – 0,4 f.p. (2022-yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi – 3,1 f.p. (2022-yilning yanvar-martida – 3,3 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2022-yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.)ga ko‘paydi.





# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

## 2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

| | 2022- yil | 2023- yil |
|---|---|---|
| YAHM | 6,0 | 5,4 |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 3,8 | 3,9 |
| Sanoat | 7,6 | 4,3 |
| Qurilish | 4,0 | 4,9 |
| Xizmatlar | 6,5 | 6,0 |

2022- yil
2023- yil

2023- yilning yanvar-martida YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 103,9% (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 20,2 %), sanoatda – 104,3 % (19,1 %), qurilishda – 104,9 % (7,4 %), xizmatlar sohasida 106,0 % (53,3 %)ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqat-lanish bo‘yicha xizmatlarda 107,2 % (10,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,9 % (7,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,3 % (35,7 %) dan iborat bo‘ldi.





# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha deflyator indeksi**
*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

2023- yilning yanvar-martida YAHM deflyatori indeksi 2022- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 114,2 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko’rsatkichlari sanoatda–123,9% va xizmatlar sohasida – 113,8 % qayd etildi.


















# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi**

| | **Hajmi,** *mlrd.so‘m* | **Ulushi,** *% da* |
|---|---|---|
| **2022- yil** | **4 045,8** | **64,7** |
| **2023- yil** | **4 916,6** | **64,5** |



2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 4 916,6 mlrd.so‘m (2022- yilning yanvar-mart oylarida – 4 045,8 mlrd.so‘m)ni tashkil qildi. YAHMdagi ulushi 64,5 % (2022- yilning yanvar-mart oylarida – 64,7 %)ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik-ning YAHMdagi ulushi-ning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxo-nalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

